

MAKTABGA TAYYORGARLIK

3

«BOLAJON» TAYANCH
DASTURI ASOSIDA

SHE'RIY ASARLAR TO'PLAMI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

“BOLAJON” TAYANCH
DASTURI ASOSIDA

SHE‘RIY ASARLAR TO‘PLAMI

(5 – 7 YOSHDAGI BOLALAR UCHUN)

IKKINCHI NASHR



TOSHKENT
«YANGI NASHR»
2015

UO‘K: 821.512.133 – 053.4
83.8(50’)
B 83

Tuzuvchi:

Zamira IBROHIMOVA,
filologiya fanlari nomzodi

Mas’ul muharrir:

Tursunboy ADASHBOYEV,
*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi
bolalar va o‘smirlar adabiyoti kengash a‘zosi.*

Taqrizchilar:

L. R. Mirjalolova – *TShPKQTMOI maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi mudiri p.f.n., dotsent*

D. X. Qarshibayeva – *TVPKQTMOI maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi*

D.Sh.Hidoyatova – *Uchtepa tumanidagi “Rohat” nomli 455-MTM mudirasi*

B.Ya.Patxullayeva – *tarbiyachi*

M. Yu. Ortiqova – *“Nafosat” nomli 465-MTM tarbiyachisi*

B 83 “Bolajon” tayanch dasturi asosida She’riy asarlar to‘plami/ tuzuvchi Z. Ibrohimova.
mas’ul muharrir T. Adashboyev. – Toshkent: «Yangi nashr», 2015. – 80 b.

Qadrli ota-onalar! MT (Maktabga tayyorgarlik) turkumida e’tiboringizga havola etilayotgan mazkur to‘plamda 5 – 7 yoshdagi bolalar saviyasiga mos keladigan she’riy asarlar jamlangan bo‘lib, xalqimizning sevimli shoirlarining eng sara asarlari tanlash asosida kiritilgan. Shuningdek, kitobdan o‘zbek xalq bolalar qo‘shiqlari, topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar va jahon bolalar adabiyotidan namunalar ham joy olgan. Oiladagi kattalar va bolaning birgalikda o‘qishlari yanada qiziqarli hamda samarali bo‘lishi uchun ko‘plab rang-barang rasmlar bilan bezatilgan.

**UO‘K: 821.512.133 – 053.4
83.8(50’)**

ISBN-978-9943-22-149-9

*Majmua O‘zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi
Maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish respublika o‘quv-metodika Markazi qoshidagi Ilmiy-metodik kengashning
2014-yil 15-apreldagi navbatdan tashqari 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga
tavsiya etilgan.*

ISBN-978-9943-22-149-9

© «Yangi nashr», 2014-yil.
© «Yangi nashr», 2015-yil.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

*Abdulla Oripov so‘zi,
Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q o r a t

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mashali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt, mangu bo‘l obod!

N a q o r a t

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!





SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

QADRLI OTA-ONALAR!

Oila sharoitida bola qalbida kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish adabiyotga qiziqishdan boshlanadi. Buning uchun oiladagi kattalar – bobo yoki buvi, ota yoki ona, aka yoki opa muntazam ravishda har kuni kichkintoyga she’r, ertak yoki hikoya o‘qib berishi lozim. Badiiy kitob bilan birgalikda o‘tkazilgan damlar xuddi bayramdagidek hayajonli va quvonchli bo‘lishiga erishing. Shundagina bola kitobga qiziqqa boshlaydi, unga o‘rganadi va mehr qo‘yadi.

*Oila sharoitida, xuddi maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kabi, she’riy va nasriy asarlar galma-galdan o‘qib berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kitobni kunning qay paytida o‘qishni bola bilan birgalikda belgilab olish zarur. Shunda bola kitob o‘qishni orziqib kutadi. Kun tartibiga rioya etishga, intizomga, tartibga o‘rganib boradi.

*Kattalar to‘plamda tavsiya etilayotgan she’riy asarlarga erkin yondoshgan holda bolaning saviyasi, tushunish, o‘zlashtirish darajasiga qarab ularni ifodali tarzda o‘qib berishlari, ba’zilarini yodlatishlari mumkin. Bolaga she’rda o‘ziga yoqqan qahramonni, tabiat manzarasini yoki biror voqeaning rasmini chizishni taklif etish ham uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

*Kattalar to‘plamda tavsiya etilayotgan she’rlar bilan avval o‘zlari tanishib, she’riy misralardagi qofiya va to‘xtamlarga e’tibor berib, uni bir qadar o‘rganib olishi zarur. Bolaga she’rni ifodali tarzda o‘qib berayotganda, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni, ovoz ohangi(intonatsiya)ga ahamiyat berish muhimligini unutmaslik kerak. Ovoz ohangi orqali bola she’rda tasvirlangan voqealarni tez tushunadi, qahramonlar kayfiyatini to‘liq his qiladi. R.Fayzning “Bodring” she’rida ovoz ohangi bir necha bor o‘zgaradi. She’rning dastlabki ikki misrasida kichkina bodring mehmondo‘stlik va quvnoqlik bilan bolalarni polizga taklif qilayapti:

Bodring der: Diring-diring,
Polizga kirib turing.

Keyingi ikki misrada u mehmonlarni o‘ziga xos jiddiylik bilan ogohlantirayapti:

Polizga kirgan chog‘da,
Palagim bosmay yuring.

Navbatdagi ikki misrada esa ogohlantirishining sababini:





Men ham sizday bolaman,
Qovoq solib olaman.

Va oqibatini bolalarcha erkalanish ohangida tushuntirayapti:

Palagimni bossangiz
Achchiq bo‘lib qolaman.

Demak, she‘rni ifodali o‘qishda ana shunday nozik jihatlariga diqqat qilib, to‘xtamlarga rioya etib, ovoz ohangi orqali obraz yaratishga, ovozni mayin, sokin, quvnoq pardalarda aytishga; qanday(ohista, tez) suratlarda o‘qishgacha aniqlashtirib olinsa, she‘r yanada jozibalroq eshitiladi, bola ruhiyatiga chuqur ta‘sir etadi, unga shodlik va quvonch bag‘ishlaydi.

*Bolaga she‘rni o‘qib berishingiz bilanoq, uni muhokama qilishga, savollar berishga shoshilmang. Chunki bola o‘qilayotgan she‘rdagi musiqiylikni his qiladi, badiiylikdan hayratlanadi, hayajonlanadi va ayni shu daqiqalarda she‘r bo‘yicha darhol savollar berilsa, she‘rdagi bir butunlik yo‘qolib, u xuddi qismlarga ajralib ketgandek bo‘ladi. Shuning uchun she‘r bir necha bor ifodali tarzda o‘qib beriladi, bola bilan birgalikda takrorlanadi. Bola uni o‘zlashtirib olganidan so‘nggina, she‘rni tahlil qilish ma‘nosida savollar beriladi.

* Farzandingiz bilan she‘r tahlilini samimiy muloqot sifatida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Masalan, yuqorida keltirilgan “Bodring” she‘ri bo‘yicha shunday muloqot o‘tkazish mumkin: “Bolajonim, sen bodringni yaxshi ko‘rasanmi? Bodring mevami yoki sabzavotmi? Bodringning “Qovoq solib olaman” degan gaplarini boshqacha aytish mumkinmi? Bilib oldingmi, bodring qachon achchiq bo‘lib qolar ekan? She‘r senga yoqdimi? Kel, bu she‘rni yodlaymiz”. Suhbat chog‘ida bolaga berilayotgan savollar, topshiriqlar tushunarli, qiziqarli va ayni paytda uning tasavvurini, bilimini kengaytiradigan, fikrlashga undaydigan, faollashtiradigan bo‘lishiga diqqatni qaratish lozim.

She‘riy asarlar bo‘yicha o‘tkaziladigan muloqotlar aniq maqsadga yo‘naltirilib, qiziqarli tashkil etilsa, shubhasiz farzandingiz she‘rdagi ma‘nolarni teranroq anglay boshlaydi, she‘riy misralardagi jozibani, tilimizning go‘zalligini his qiladi; aqliy qobiliyati, dunyoqarashi shakllanib boradi; mustaqil fikrlashga, fikrlarini aniq, ravon bayon etishga o‘rganadi. Badiiy asarlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, estetik qimmatini ham shunda ko‘rinadi.

Kitob boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil (birgalikda) o‘qish uchun ham tavsiya etiladi.

Zamira IBROHIMOVA






KATTA YOSH DAVRI YOD OLISH VA IFODALI O'QISH

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

Beshik qo'shiqlari

*A*lla qo'zim, qunduzim, alla,
Orom ol, qo'zim alla...
Oyni olib beraymi?
Gullar terib kelaymi?
Atrofingda aylanib
Shamol bo'lib yelaymi?
Asalimga atalgan
Beshiklari gul taxta.
Uxlab bir orom olgin.
Yelkang muloyim – paxta.
Alla bolam, ol bolam,
Gapga quloq sol, bolam.
Alla aytsam, uxlagin
Tillari asal bolam.



*D*ilrabo dilim, dedilar,
Sayroqi tilim, dedilar.
Onajonisining quvvati –
Shugina belim, dedilar.

*O*tam, otam, otam, dedim,
Qoshginasi qalam, dedim.
Shoshmay turing, erka o'g'lim,
O'zim sizga salom, dedim.



Mavsum qo'shiqlari

Navro'z keldi, yoz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan
Bulbulday ovoz keldi.

Navro'z keldi bu kecha,
Pishiring navro'z go'ja.
Go'jasi shirin momolarga
Beraylik bir juft jo'ja.

Boychechagim hillolik,
Hamyon-hamyon tillolik.
Hamma bozor — bir bozor,
Tevarak-cheti lolazor.



Qaldirg'och qayib uchar,
Qanotin yoyib uchar.
Navro'zda qozon to'lsa,
Elimizni baxt quchar.

Ketgan qushlar uzoqdan
Yana bizga qaytadi.
Kurtak ochgan shoxlarda
Sayrab qo'shiq aytadi.





Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Laylak boradi tog'ga,
Quloqlarida halqa,

* * *

Halqani opqochaylik,
El boshiga sochaylik.
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsini!



Qiziqmachoqlar

– Qurbaqajon, qurbaqa,
Afting nega bundaqa?
– Suv ichida ko'p yurdim,
Aftim bo'ldi shundaqa.
– Qurbaqajon, qurbaqa,
Oyog'ing nega bundaqa?

– Kovush-maxsi kiymadim,
Shunga bo'ldi shundaqa.
– Qurbaqajon, qurbaqa,
Ko'zing nega bundaqa?
– Men ko'zoynak taqmadim,
Shuning uchun shundaqa.





O'yin qo'shiqlari

Chori chamber,
Biri anbar.
Ona qiz qayda?
Ola-bula tog'da.
Tog'man, zuvman,
Pilkash to'tiqiz,
San tur,
San chiq.



Qovun palak
Guvak otdi,
Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan,
Safdan chiqsin,
Qo'lim tekkan.

Xurmacha bog'i,
To'kildi yog'i,
To'kilsa, mayli,
Qo'shnimizning iti bor,
Qulog'ida biti bor.
Xola, xola,
Xash, tu -tu.
Xash, tu.

Men o'tirdim,
Kashta tikdim.
Voy, qo'lchamga
Suqildi igna,
Jaq-juq,
Jaq-juq,
Sen tur,
Sen chiq.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3818> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3818> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3818>